

# TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092



## O'QUVCHILAR KITOB O'QIYAPTI,

## O'QIGANDA HAM TANLAB O'QISHYAPTI

Yaqinda poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida ilk marotaba «Bolalar kitobi» respublika festivali bo'lib o'tdi. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi doirasida «Sog'lom va ma'naviy yetuk avlod – yurt kelajagi!» shiori ostidagi mazkur festival nafaqat poytaxtda, balki bir vaqtning o'zida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida ham o'tkazildi.  
(Davomi 2-betda)

### «TONG YULDUZI»GA OBUNA BO'LDIM, SIZ-CHI?

Men, Asilabonu Karimova bu yil poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 299-umumta'lim maktabining 1-sinfiga o'qishga bordim. Maktab menga juda yoqdi. Darslarni o'z vaqtida yaxshi o'zlashtirayotganim, har kuni a'lo baholar olib kelayotganim uchun buvajonim meni «Tong yulduzi» gazetasiga obuna qildirib qo'ydilar. Yangi yildan boshlab uyimizga keladigan gazetani o'zim bemalol o'qiydigan bo'laman.





## HAMMAMIZNING SEVIMLI NASHRIMIZ

**deydi Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumani Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudiri Anvar aka MURSAQULOV**

Diyorimizda oltin kuz o'z sepini yoygan. Kuz fasli kelishi bilan nafaqat mo'l-ko'l hosil yig'im-terimi davri, balki yurtimizda chop etiladigan gazeta-jurnallarga obuna mavsumi ham boshlanadi.



Muxbirlarimiz joylarda bo'lishib, obuna ishlarini tashkillashtiruvchi mutasaddi rahbarlar bilan uchrashishmoqda. Shunday uchrashuvlardan biri Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanida ham bo'lib o'tdi. Anvar aka bilan bo'lgan suhbatimiz aynan shu haqda bordi.

– Hozirgi kunda ulug' alloma nomi bilan ataladigan tumanimizda jami 101 ta ta'lim-tarbiya muassasasi faoliyat olib bormoqda. Bular orasida 31 ta umumta'lim maktabi, 3 ta maxsus maktab-internat, 4 ta musiqa va san'at maktabi, 5 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi, 1 ta «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazi va 57 ta maktabgacha ta'lim muassasasi shular jumlasidandir.

«Tong yulduzi» – bolalar va o'smirlarning sevimli nashrlaridan biri sanaladi. Har haftada chop etilib, mushtariylarini yangiliklardan xabardor etuvchi bu gazetani o'zimiz ham o'quvchilik vaqtimizda sevib o'qiganmiz. Gazetxon o'quvchilarimiz 2015-yilda «Tong yulduzi»ni yanada sevib mutolaa qilishadi, bu esa ularning dunyoqarashini kengaytirishi bilan birga, fanlarni a'lo o'zlashtirishlariga ham yordam beradi.

**BONU yozib oldi**



## O'QUVCHILAR KITOB O'QIYAPTI,

### O'QIGANDA HAM TANLAB O'QISHYAPTI


**(Davomi. Boshi 1-betda)**

«Bolalar kitobi» respublika festivalini o'tkazishdan asosiy maqsad, avvalo, bolalar adabiyotini rivojlantirish, o'sib kelayotgan avlodni milliy mustaqillik g'oyalari va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual rivojlangan va ma'nan barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning o'rni va ahamiyatini yanada oshirish, yoshlarni milliy adabiyotga, kitobga bo'lgan qiziqishi, hurmatini yuksaltirish hamda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini shakllantirib borishga hissa qo'shishdir.



Bugungi kunda respublikamizda 108 ta nashriyot faoliyat yuritadi. Ushbu nashriyotlar tomonidan har yili 2,5 ming nomdan ziyod, umumiy adadi 40 mln. nusxadan ortiq turli kitob mahsulotlari nashr etilmoqda. Ellikdan ortiq nashriyot bolalarga bag'ishlangan noshirlik mahsulotlarini chop etib kelmoqda. Nashr etilayotgan adabiyotlarning har uchtdan bittasi bevosita bolalarga bag'ishlangan nashrlardir.

Bayramda, ayniqsa, Prezidentimizning so'nggi yillarda nashr etilgan asarlari ko'rgazmasi, «Sog'lom bola yili»ga bag'ishlangan hamda nufuzli xalqaro kitob ko'rgazmalarida sovrinli o'rin egallagan kitoblar taqdimotlari o'quvchilarning e'tiborini tortdi. Shuningdek, nashriyotlarimiz tomonidan so'nggi yillarda chop etilgan 200 dan ziyod nomdagi yangi kitoblarning taqdimotlari, shoir va yozuvchilar, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari va yosh ijodkorlarning ijodiy uchrashuvlari va mushoiralar o'quvchilarni yanada kitobxonlikka jalb etgan bo'lsa, ajabmas.



«Eng yaxshi yosh kitobxon», «Kitobxon oila», «Mening birinchi kitobim», «Mo'jiza emasdir falakda o'tob, mo'jiza aslida beminnat kitob», «Kitob – eng yaxshi sovg'a» mavzularidagi intellektual o'yin va viktorinalar yosh kitobxonlarga o'zgacha zavq ulashdi.

Festivalda poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 41-, 82-, 299-, Sergeli tumanidagi 300-, Chilonzor tumanidagi 162-, Yunusobod tumanidagi 96-, 274- maktab o'quvchilari nafaqat kitobxon, balki gazetxon ekanliklarini ham namoyon etishdi va bu kabi festival ularning ko'nglidagidek ish bo'lganini qayta-qayta ta'kidlashdi.



Z.Mamatqulova olgan suratlar

Sentabr – geografiya fani oyligi  
**DUNYO BO'YLAB...**

Aziz tengdoshlar, mana, o'quv yili boshlanganiga ham salkam bir oy bo'lyapti. Bizni orziqib kutgan maktabimizning bag'ri shodon kulgularimiz bilan to'lgan. Barcha o'quvchilar mashg'ulotlar-u uy vazifalari bilan band, shunday emasmi?!

Sentabr oyi umumta'lim maktablarida geografiya fani oyligi, deb e'lon qilingani barchangizga ma'lum. Bizning maktabimizda ushbu fan juda qiziqarli o'tiladi. Ustozimiz Murtazo aka Jabborov, mana 23 yildirki, geografiya fanidan saboq berib keladi. Ustoz har bir darsga alohida tayyorgarlik ko'rib, dars o'tishning interaktiv usullaridan foydalanadi. Darslikda yo'q ma'lumotlarni izlab topadi, har bir mamlakatning o'ziga xos jihatlarni tushuntiradi. Ko'pincha bu fandan sinflararo musobaqalar ham uyushtirib turamiz. Fanga oid referatlar, bukletlar, oynoma va devoriy gazetalar tayyorlaymiz. Bir so'z bilan aytganda, geografiya fani barchamizni dunyo bo'ylab sayohatga chorlaydi.

**Maftuna SIROJIDDINOVA,**  
poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi profilni mehnat ta'limiga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi



**Asalxon bog'larni jon-dildan yaxshi ko'radi. U hali yosh bo'lsa ham, mevali daraxtlarning sir-sinoatini bog'bonlardek yaxshi biladi. O'g'izrabot qishlog'idagi Al-Xorazmiy nomli 11-umumta'lim maktabining 9-sinfida a'lo baholarga o'qish bilan birga, bo'sh vaqti topildi, deguncha bobosining bog'lari sari shoshiladi.**

Chunki yosh qalbi shu navnihollar bilan hamohang. U har bir mevali daraxt bilan sirlashadi, pinhona suhbatlashadi. Daraxtlarning novda-yu yaproqlariga qarab, ularni tezda tushunadi. Chanqagan bo'lsa darrov suv taraydi, o'g'it kerak bo'lsa, oz-ozdan ozuqa beradi. Kasallanayotgan bo'lsa bobosi bilan maslahatlashib dorilaydi. Xullas, u bog'siz, bog' esa usiz turolmaydi.

Ayniqsa, yoz bo'yi ta'tilda hamma vaqti bog'da o'tdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bobosi Tangriberdi akaga umuman ish qoldirmaydi. O'zi astoydil harakat qilib, barcha yumushlarni bekam-u ko'st ado etadi.

Kuz keldi. G'alvir suvdan ko'tarildi. Bog'bonlar hosilni chamalay boshlashdi. Bu yil ham havo ancha issiq kelib, mo'l

**BOG'LAR BILAN SIRLASHIB**

hosilga puxta zamin yaratildi. Erta bahorda yumshatilgan daraxtlar orasiga tashlangan mahalliy o'g'it, me'yorida berilgan suv hosilning ko'zlanganidan ham mo'l bo'lishini ta'minladi.

– Nevaram Asalxon mening eng yaqin yordamchim, – deydi Bog'ot tumanidagi «Matmurod buva» fermer xo'jaligi rahbari Tangriberdi Yoqubov. – U qiz bola



Suratda: Asalxon bobosi Tangriberdi Yoqubov bilan.

bo'lsa ham bog'dorchilikni jon-dildan sevadi, o'zining bu yilgi ta'tilini xo'jaligimiz ishiga butunlay bag'ishladi. Hatto ko'pgina tengdoshlarini ham bu ishga jalb qildi. Birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli fermer xo'jaligimizda hosil mo'l bo'ldi. Bu yil 7-8 tonna uzum, bir tonnadan ziyod o'ndan ortiq navdagi olma, nok, shaftoli olishni mo'ljallamoqdamiz.

Asalxon nabiram a'lo baholarga o'qish va jamoat ishlarida faol qatnashish bilan birga O'g'izrabot qishlog'ida tug'ilib o'sgan va ma'rifat olamiga «Qissai Rabg'uziy» nomli asarni tortiq etgan, ulug'alloma-adib Nosiriddin Rabg'uziy merosini ham o'rganmoqda. Ana shunday ulkan iste'dodga ega bog'bonlarning merosini o'rganish va targ'ib qilish bugungi avlodning muqaddas burchidir.

Biz Tangriberdi aka va Asalxon Yoqubova bilan fermer xo'jaligi bog'larini aylanamiz. Saxiy quyosh nurida jilvalanib, odamning ko'zini quvnatayotgan asaldek shirin uzumlar, nok, olma va boshqa mevalarni ko'rib, ona yerimizning naqadar bebaho ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

**Feruza RAZZOQOVA,**  
Xorazm viloyati

**HUQUQINGIZNI BILASIZMI?**

To'y bahonasida uyimizni yengilgina ta'mirdan chiqarmoqchi bo'ldik. Ta'mirlash ishini bo'yniga olgan usta aka ikkita shogirdini ergashtirganicha tong saharlab kirib keldi. Birgalashib nonushta qildik. Keyin esa usta ishlatiladigan materiallarni ko'zdan kechirib, chamalab ko'rdi.

– Besh-oltita uch-to'rt metrlik taxta kerak. Havoz qilmask bo'lmaydi.

– Oldinroq bilganimda harakatimni qilardim, – dedim ustaning gapiga hayron bo'lib. – Mayli, men qo'shnilardan bir so'rab ko'ray.

Afsuski, qo'shnilarda ham biz qidirgan narsa topilmadi. Avzoyimdan ishim bitmaganini sezgan usta oldiga imladi.

– Domla, Do'zanda ko'chasi qurilish mollari do'konida arzimagan pulga taxtalarni ijaraga beradi. Ishingiz bitgach, olib borib



**HAVOZA**

berasiz. Faqat pasportingizni olvoling, usiz bermaydi.

Litseyda o'qiydigan o'g'lim Akmal bilan usta aytgan do'konga bordik. Bizga kerakli o'lchamdagi taxtalarni o'sha yerda turgan mashinalardan biriga ortdik. Hisob-kitob qilib bo'lgach, endi mashina tomon yura boshlaganimizda sotuvchi yigit to'xtatdi.

– Aka, pasportingizni tashlab keting, – dedi oldidagi mijozlar ism-sharifi qayd etilgan daftarning bo'sh joyini ocharkan.

– Iye, esdan chiqibdi-ku, – dedim orqamga o'girilib. Keyin esa yon cho'ntagimdan pasportimni olib sotuvchiga uzatdim. U hali qo'l cho'zib ulgurmagan ham edi-ki, o'g'lim qo'limdagi hujjatimni changallaganday qilib ushladi.

– Ota, nima qilyapsiz? Pasportni birovning qo'lga berib bo'lmaydi-ku!

O'g'limning bu ishidan hayron qolgandim. Sotuvchi yigit ham birinchi bor bunday holga duch kelgan shekilli, avvaliga dovdirab qoldi. Keyin esa gapni cho'rt kesdi.

– Hujjatsiz berolmayman.

– O'g'lim, kettik. Boshqa joydan topamiz.

Taxtalar mashinaga ortilgan joyida qoldi. Do'kondan chiqib uyga yo'l oldik.

O'g'limning ulg'ayib qolgani, haqqini taniganidan ko'nglim zavqqa to'lgandi. Piyoda yo'lga tushdik.

– Ota, hujjatingizni oxirgi betida yozib qo'yilgan-ku. Bu juda muhim hujjat, – dedi o'g'lim sal hovuridan tushganday.

Men hali cho'ntagimga solib ulgurmagan, barmoqlarimni cho'g'day qizdirayotgan pasportimni oxirgi betini ochdim.

**«Pasport O'zbekiston Respublikasi mulkidir. Ushbu pasportning egasi O'zbekiston Respublikasi himoyasidir»...** Bosma harflarda yozilgan bu so'zlar vujudimni titratib yuborgandek bo'ldi. Hujjatimni avaylabgina ko'krak cho'ntagimga soldim.

Taxtasiz kelayotganimdan kayfiyatim buzilgan bo'lsa-da, o'g'limning ishidan ko'nglim tog'day ko'tarilganicha hovlimiz darvozasiga yetay deganimizda, boya biz taxta ortgan mashina ortimizdan yetib keldi. Haydovchi mashinani yo'l chetiga olib to'xtatganicha kabinadan sakrab tushdi.

– Do'konimiz xo'jayini boyagi voqeani eshitib, o'g'lingizga qoyil qoldilar. Rostdanam yoshi bola shunday qildimi, deb qayta-qayta so'radilar. Keyin esa menga taxtalarni tez olib borib, uzr so'rab kel, dedilar. Ishlatib bo'lib qo'ng'iroq qilsanglar, yana o'zim kelib olib ketaman.

Haydovchi shu gaplarni aytib taxtalarni tezda tushirganicha ortiga qaytib ketdi.

Bizdan «arazlagan» taxtalardan baquvvat, baland havoz tiklandi va ishimiz jadallik bilan yurishib ketdi.


**Yusuf ABDULLAYEV**

# «SHODLIK» SHODLIK ULASHDI


Unda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida alohida namuna ko'rsatgan mahalla faollariga tantanali tarzda esdalik sovg'alari topshirildi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, bugun bu mahallada bog'cha tarbiyalanuvchilari va maktab o'quvchilarining darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahalla guzari oldidagi sport maydonchasi hamisha bolalar bilan gavjum. Turli mevali va manzarali daraxtlar, anvoyi gullar bilan bezangan bu maydon katta-yu kichikning sevimli maskanlaridan biridir. O'zini shu yurtning bir bo'lagi deb his qilish, uning obodligi yo'lida qo'ldan kelganча mehnat qilish mahalla ahlining yakdil fikriga aylangan.

Kuni kecha poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi «Shodlik» mahallasida Istiqlol bayramiga bag'ishlab tadbir o'tkazildi.



O'z muxbirimiz



N.SULTONOV olgan suratlar

**Azizbek darsga kecha dadasi olib bergan qo'l telefonini olib keldi. Buni ko'rgan sinfdoshlari unga havas qilishdi. «Qimmat tursa kerak-a?», gap boshladi To'liqinjon hayrat bilan.**

– Qimmat turadi, juda qimmat turadi. Shuning uchun ham uyingizdagilar sizlarga olib berolmaydi, – dedi-da qo'l telefonini ko'z-ko'z qilganча xonadan chiqib ketdi. Uning ortidan partadoshi Muzaffar boshini sarak-sarak qilib qarab qoldi.

Matematika darsida o'qituvchi Azizbekka uch bora dakki berdi. Ammo foydasi bo'lmadi, oxiri qattiqroq gapirishga majbur bo'ldi:

– Azizbek, telefoningni o'ynamasdan darsga quloq sol. Necha marta tanbeh berdim, nima bo'ldi o'zi senga, odobli bola eding-ku?

– Nega hadeb meni urishaverasiz? O'zingiz bolangizga olib bera olmaysiz-da...

Zulfizar Akbarovnaning lablari titrab ketdi:

– Bolajonim, nega unday deysan, men ham farzandingga qo'l telefoni olib berishim mumkin, ammo u ham senga o'xshab darsga quloq solmay qo'yishidan qo'rqaman. Telefoningni o'chirib qo'y, xalaqit qilma, – deya Zulfizar opa darsni davom ettirdi.

Qo'ng'iroq chalingach, hamma bolalar tashqariga otildi. Azizbek ham dars tugashini kutib turgan ekanmi, birinchilardan bo'lib o'zini eshikka urdi. Ovqatlanmoqchi bo'lib oshxonaga kirdi. Qarasa, chetdagi stollardan birida uch-to'rt nafar 5-«A» sinf qizlari o'tirishgan ekan. Ularga maqtangisi kelib, qo'lini cho'ntagiga

«Barkamol avlod» respublika texnik ijodiyot markazi hovlisi.  
O'quvchilar navbatdagi an'anaviy  
«Ochiq eshiklar kuni» tadbiriga yig'ilishgan.

## KATTA XIRMONTEPADA BAYRAM

Tadbirdan ko'zlangan maqsad ijodiyot markazi tasarrufidagi to'garaklar faoliyati haqida ma'lumot berish, o'quvchi-yoshlarni mazkur to'garaklarga jalb etish, ularga texnik yo'nalishdagi boshlang'ich bilimlarni berish, shuningdek, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urfodatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hamda kelajakda har tomonlama barkamol va yetuk inson bo'lib yetishishlarida boshlang'ich kasb-hunarga bo'lgan ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Hozirda markazda to'rt yuzga yaqin o'quvchilar 18 ta yo'nalish bo'yicha kasb-hunar sirlarini qunt bilan o'zlashtirmoqda. «Ochiq eshiklar kuni»da «Avtomodel», «Aviamodel», «Kemasozlik», «Duradgorlik», «Kulolchilik», «Yosh musavvir», «Liboslar dizayni» to'garaklari qatnashchilarining ijodiy ishlari ko'rgazmasi namoyishi hamda «Milliy raqs» dastasi qizlarining «Eroncha», «Buxorocha» raqslari tadbir mehmonlarida ajib taassurot qoldirdi.



Markaz Chilonzor tumanining «Katta xirmontepa» mahallasida joylashgani bois to'garak a'zolarining aksariyati shu hududda joylashgan 101-, 114-, 200-, 202-, 217- umumta'lim maktabi o'quvchilaridan iborat.

– Biz ham markazning «Shaxmat» to'garagiga qatnashishni niyat qildik, – deydi 114-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchilari Javohir Haqberdiyev va Ilhom Quvonov.



Ushbu ko'rgazmalar tadbirida ishtirok etayotgan o'quvchilarga kelgusida kasb tanlashda yordam berishi, shubhasiz. Tadbir davomida to'garaklarning faol a'zolari Markazning faxriy yorliqlari bilan taqdirlanishdi.

Nurbek QIDIRALIYEV

### SIZ NIMA DEYSIZ?

# SABOQ BO'LDI



solsa, telefoni yo'q. Nahotki yo'qotib qo'ygan bo'lsa?! Endi nima qiladi, uyidagilarga nima deydi, dadasi kechagina sovg'a qilgan edi-ya.

Zulfizar Akbarovna darslarini tugatib, maktab hovlisidan chiqayotganda stadion oldida boshini quyi solib o'tirgan Azizbekni uchratdi.

– Darsing tugaganiga uch soat bo'ldi-ku, nima qilib yuribsan?

Azizbek ko'ngli to'lib yig'lab yubordi. Bo'lib o'tgan voqeani eshitgan ustozni uni yupatdi.

– O'zim uyingdagilarga tushuntiraman, xafa bo'lma, seni urishishmaydi. Mana bu pulga uyingga yetib olasan, endi esa boraqol.

Azizbek ikki-uch qadamdan so'ng orqasiga qayrildi:

– Ustoz!

Zulfizar opa ajablanib qaradi:

– Labbay, Azizjon?

– Meni kechiring, ustoz. Boya sizni xafa qildim, farzandingizga qo'l telefoni olib bermay to'g'ri qilgan ekansiz. Qilgan ishimdan pushaymonman. Endi darslarga diqqat bilan quloq solaman, yaxshi o'qishga va'da beraman.

Zulfizar Akbarovna mayin jilmayib qo'ydi...

Davronbek ORIPOV

# LESSON 3

## PHRASAL VERBS (Iboralar)

**Break down** – buzilib qolmoq  
 For example: Sardor's car **broke down** on the way to the airport, and had to get a taxi.



**Make up** – yarashmoq  
 Ex: Yesterday Ali and Farkhod quarreled. Earlier today they decided to forget their differences and **make up**.



**Run into** – to'satdan uchrashib qolmoq  
 Ex: I was on my way to work Friday morning, I **ran into** Nargiza.



**Get over** – sog'ayib ketmoq  
 Ex: Sanjar has **got over** his flu and he'll come to school tomorrow.



**Work out** – aniqlamoq  
 Ex: Javohir is busy doing his homework. At the moment he is **working out** the answer to a math task.



**Point out** – ko'rsatmoq  
 Ex: My father showed me the building he used to work in and he **pointed out** his old office on the sixth floor.




Dinara SHAKIROVA tayyorladi

## FIND ADJECTIVES

(Sifatlarni aniqlang)

Read the sentence and write down which word you think is the adjective.

1. It's a small problem. *small*
2. I have a great idea. ....
3. The price is cheap. ....
4. I like hot food. ....
5. The flowers are pretty. ....
6. He is my new friend. ....
7. The bus is slow. ....
8. Winter is cold. ....
9. I want a different haircut. ....
10. She arrived early. ....



## RETELL ABOUT YOUR WORKING DAY

(Kuningiz qanday o'tishini gapirib bering)


I get up at 7 o'clock. I go to the bath-room to wash. Then I have breakfast. I go to school at 8 o'clock. Our lessons begin a half past eight o'clock. We have 4 or 5 lessons a day. I come back home at 1 o'clock. I have dinner at 2 o'clock. Then I have a rest. I do my lessons at 4 or 5 o'clock. We have supper at 7 o'clock. Our family and I go for a walk in the evening. I go to bed at 10 o'clock. And I always conform to this proverb. «Early to bed and early to rise, makes a healthy wealthy and wise».



Risolat ISMOILOVA

## THE KING AND THE CRITIC

(Shoh va tanqidchi)



A king liked to write stories which he thought very good. The people to whom he showed them were afraid to criticize them. They said that his stories were good. One day he showed some of them to a well known critic, who said that his stories were bad. The king got angry with him and sent him to prison.

After some time the king pardoned the critic and when he returned king invited him to dinner. Again he showed some of his stories and again asked him what he thought about them. The critic turned to the guards who were standing behind him and said: «Take me back to the prison».

### New words:

- |                                 |                            |
|---------------------------------|----------------------------|
| Story – hikoya                  | Get angry – jahli chiqmoq  |
| Think (thought) – o'ylamoq      | Pardon – kechirmoq         |
| Show – ko'rsatmoq               | Return – qaytmoq           |
| Criticize – tanqid qilmoq       | Invite – taklif qilmoq     |
| A well known – mashhur, taniqli | Guard – askar              |
| Bad – yomon                     | Take back – orqaga qaytmoq |

## So and Such

**So and Such** – shunaqa, shunday, shunchalik, bunchalik, juda ma'nolarini anglatadi.

So dan so'ng sifat va ravish qo'llaniladi.

For example: so good, so nice

Such dan so'ng esa ot qo'llaniladi.

For example: such people, such books

So va such sifat ma'nolarini kuchaytirish uchun ham ishlatiladi:

It is so cold. (Shunaqa sovuq).

Make one sentence from two and use so or such in first sentences.

It was such a beautiful day.

We didn't want to come home.

We had a good time on holiday.

We decided to go to the beach.

I had a big breakfast.

I didn't eat anything else for the rest of the day.

Nozima YO'LDOSHEVA

## FIND THE SYNONYM OF THESE WORDS

(Ushbu so'zlarning sinonimlarini toping)



- |        |          |
|--------|----------|
| autumn | kid      |
| begin  | aims     |
| simple | bright   |
| small  | closer   |
| stop   | little   |
| pupil  | finish   |
| nearer | start    |
| light  | ordinary |
| child  | fall     |
| goals  | scholar  |



**KAPALAK**

Bir go'zal kapalak,  
uchdi bog' aro,  
Quyosh nurlarida jilolandi u.  
Raqs tusha boshladi,  
quvonch dilga jo,  
Gullarning yuzidan  
yog'ildi yog'du.

Sayr eta boshladi  
gulzorga to'lib,  
Hayotning fusunkor  
gashtini surdi.  
O'zining qisqacha  
umridan kechib,  
Zavqlandi, tinimsiz  
yelib-yugurdi.

*Nastarin ZARIPOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Qarshi shahridagi  
5-umumta'lim maktabining  
5-«A» sinf o'quvchi*



**QUSHLAR**

Qarang, qushlar samoda,  
Erkin parvoz qiladi.  
Erk, ozodlik qadrini,  
Ular yaxshi biladi.

Ozod, obod diyorum,  
Shu qushlarga o'xshaydi.  
Bunda ellar, elatlar,  
Shod, baxtiyor yashaydi.

Qalbga quvonch ulashsin,  
Qushlarning jo'shqin sozi.  
Burgutdek yuksak bo'lsin,  
Ona yurtim parvozi.

*Feruz EGAMBERDIYEVA,  
Samarqand viloyati,  
Paxtachi tumanidagi  
1-umumta'lim maktab-  
internatining  
8-«A» sinf o'quvchisi*

**IKKI DUGONA**

Bir maktabda, bir sinfda,  
O'qir ikki dugona.  
Ular juda bilimdon,  
So'zlari dona-dona.

Ular qalin do'stligin,  
Hatto mahalla bilan.  
Juda ko'p qo'shni qizlar  
Ularga havas qilar.

Tongda barvaqt turishar,  
Har ishga ulgurishar.  
Ota-onalarini  
Doim hurmat qilishar.

Har ishlari rejali,  
Havas qilar odamlar.  
Go'zal orzular bilan,  
Tashlar dadil qadamlar.

*E'zoza MUHAMMEDOVA,  
Toshkent shahar,  
Uchtepa tumanidagi  
193-umumta'lim maktabining  
7-«D» sinf o'quvchisi*



*Bahrom AKBAROV*

**O'ZBEKISTONIM**

Vatan – onajonim  
Dilda iyonimim.  
Tandirdan uzilgan  
Bo'rsildoq nonim.  
Siyrating yurakka  
Chizib olganman.  
Quyoshday taftingga  
Sira to'yamayman.  
Tog'larning boshiga  
Do'ppi kiygan oq –  
Qadoq qo'llaridek  
Sehrli, yumshoq.  
Bag'ringda o'syapman,  
Shodlikka to'lib.  
Ilm olmoqdaman  
Alisher bo'lib.  
Jaloliddin bobom  
Sha'ni qonimda.  
Temurbek bobomning  
Shoni yodimda.  
Shiroqdek yurtimga  
Sodiq bo'laman.  
Hurriyat farzandi  
Jasur bolaman.  
Ko'zim qorachig'i –  
Jannatmakonim.  
Quyoshdek nur sochg'in  
O'zbekistonim!

**INOQ AKA-UKALAR**  
(Koreys xalq ertagi)

Qadim zamonda ikki aka-uka bo'lgan ekan. Ular tog'ning ikki tomonida yashashsa ham bir-biridan doimo xabar olib turishar, qanday yordam kerak bo'lsa, hozir-u nozir ekan.

Kuzning so'lim kunlarining birida ular daladagi hosilni yig'ib, teng bo'lib olibdilar.

Shu kuni tunda akaning ko'ziga uyqu kelmasdi. Ukasi haqida o'ylabdi: «Biz hosilni teng bo'ldik, ammo ukam yaqinda oila qurdi, o'zini tiklab olgunicha unga qarashib turishim kerak».



U o'midan turib, o'z ulushidan bir qop bug'doyni ukasining omboriga qo'yib kelibdi.

Bu paytda uka ham xayol surayotgan ekan: «Qanday qilib men akam bilan baravar miqdorda bug'doy olishim mumkin?! Axir akamning oilasi katta bo'lsa, mendan ko'ra ko'proq ulush ularga tegishi kerak emasmi?»

U ham o'midan turib, akasining omboriga bir qop bug'doy qo'yib kelibdi. Ertalab aka-ukalar o'z omborxonalariga kirib hayron bo'lishibdi.

«Qanday qilib bunday bo'ldi? Esimda, kecha bir qop ulushimni ukamga olib borib beruvdim, lekin qoplar umuman kamaymabdi», deya hayratlanibdi aka. Uka ham: «Axir akamga bir qop bug'doy tashlab keluvdim-ku», deya hech narsani tushunmasmish. Kech tushgan zahoti aka ham, uka ham o'z ulushlaridan bir qop olib, yana yo'lga chiqibdilar. Ammo ular yo'lda bir-biriga duch kelibdilar.

– Kech bo'lganda qayerga ketyapsan, – deya so'rabdi aka ukasidan.

Uka ham hayron bo'lganicha akasini savolga tutibdi:

– O'zingiz-chi, qop orqalab qayerga ketyapsiz?

Ular haqiqatni bilgach, ich-ichidan sevinibdilar. Shu voqeadan so'ng ular yanada inoq aka-uka bo'lishibdi.

*Sitorabonu HOTAMOVA tarjimasini.  
Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi  
3-akademik litseyining I bosqich o'quvchisi*

**TO'G'RI QAROR**

(Hikoya)

Nigina sinfda eng faol o'quvchilardan bo'lgani uchun uni sinf rahbari sardor etib tayinladi. U doimo o'quvchilarni nazorat qilar, o'rtog'lariga qo'lidan kelganicha yordam berardi. Shuning uchun ham uni sinfdoshlari hurmat qilishardi. Sinfda faqat Botir sira dars tayyorlamas, doim «2» baho olgani-olgan. Sinfdoshlarining yordam berishlarini esa xohlamasdi. Shu tufayli ham ularning sinfi maktabning «Eng faol sinf» maqomidan tushib qoldi. O'quv yili yakunida, bitiruv imtihonlaridan o'tolmagan Botirni kuzgi sinovga qoldirishdi. Bu unga yomon ta'sir qildi. Bunga Nigina befarq qarab turmasdi. U Botirga yordam bermoqchi bo'ldi. Sinfdoshlaridan yordam olishni istamagan Botir negadir Niginaga yo'q deya olmadi. Nigina Botirga imtihonlarga tayyorlanishda astoydil ko'maklashdi.

Asta-sekin Botirdagi beparvolik o'rmini darsga, kitobga bo'lgan qiziqish egalladi. Botir bilan Nigina yoz bo'yi birga dars qilishdi. Nigina erinmay Botirdan o'rganganlarini so'rardi.

Nihoyat, kuz ham keldi. Botir imtihonlarni a'loqa topshirdi. Natijada, sinfdagi a'lochilar safi yana bittaga ko'paydi. Bundan nafaqat Nigina, balki butun sinf quvondi, negaki, yangi o'quv yilida endi maktab bo'yicha «Eng faol sinf» darajasi mana shu sinfga berilardi-da. Botir Niginadan behad minnatdor bo'ldi. Nigina esa qarori ish berganidan mamnun edi.



*Sohiba O'SARALIYEVA,  
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi  
2-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi*

## BOLALARGA MEHR ULASHIB...

*«Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi muruvvat yo'nalishida ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirmoqda.*

Jumladan, imkoniyati cheklangan bolalarni sportga jalb etish, ularni jamiyatimizga moslashuvini ta'minlash maqsadida kuni kecha poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 100-ixtisoslashtirilgan maktab-internatida «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi, O'zbekiston Milliy paralimpiya assotsiatsiyasi hamda qator tashkilotlar hamkorligida jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar o'rtasida sportning stol tennis bo'yicha «Sog'lom avlod uchun» kubogi musobaqasi o'tkazildi. Ushbu musobaqaning qanchalik ahamiyatga egaligi tadbirda qatnashgan bolajonlarning g'ayrati va shijoatidan ko'rinib turardi.

OZODA



## ISTE'DODLI SPORTCHILAR MASKANI



*Buxoro shahridagi 7-ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabida 379 nafar o'g'il-qiz sportning tennis, badminton, kamondan otish kabi turlari bo'yicha mahorat sirlarini o'rganmoqda.*

Zamonaviy tarzda jihozlangan sport maskanida mashg'ulotlar yuksak saviyada tashkil etiladi. Ayniqsa, tennis mashg'ulotlariga qatnashuvchilar soni ortib borayotir. Buning samarasida maktab tarbiyalanuvchilari tennis bo'yicha mamlakat va xalqaro turnirlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelishmoqda.

## «KAMOLOT-TUR» G'OLIBLARI TAQDIRLANDI



*Poytaxtimizda «Kamolot-tur» VII yoshlar velomarafoni-ning mamlakat bosqichi bo'lib o'tdi.*

Mazkur an'anaviy musobaqa qator davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, mamlakatimizda velosportni yanada ommalashtirish maqsadida tashkil etildi.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi raisi Bahodir G'aniyev yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani sog'lom avlodni voyaga yetkazishda muhim omil bo'layotganini ta'kidladi. An'anaviy «Kamolot-tur» velomarafoni ham ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qilayotir.

Ushbu velomarafon yoshlarda sportga qiziqish oshayotganini yana bir bor namoyon etdi. Buni musobaqa qatnashchilari safi yildan-yilga kengayib borayotganida ham ko'rish mumkin. Velomarafonning hududiy bosqichlarida g'alaba qozongan velopoygachilar poytaxtlik ko'ngilli velosportchilar bilan birga 20 kilometrlik masofani bosib o'tishdi.

Toshkentlik Gavriil Sulemin, Aleksey Srailov, Toshkent viloyatidan Temur Shukurov, qoraqalpog'istonlik Ilhom Yesaliyev, Pana Dao'letbayev, namanganlik Shuhrat Hojiyev, farg'onalik Elyorbek Nishonov, jizzaxlik Nodirbek Xursanov, xorazmlik Bektemir Rajabov g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi.

– Velosport inson salomatligi uchun foydali sport turlaridan biridir, – deydi namanganlik Shuhrat Hojiyev. – Bunday musobaqalar yoshlarni sog'lom turmush tarziga jalb etishda, sportni ommalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Velomarafon ishtirokchilari «Eng yosh poygachi», «Faxriy velopoygachi», «Eng mahoratli texnik velopoygachi», «Eng irodali velopoygachi», «Eng mahoratli velopoygachi qiz» va «Velopoygachilar oilasi» nominatsiyalari bo'yicha taqdirlandilar.

Jamshid KAMOL

*«Har bir sportchi xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishib, Vatani sharafini munosib himoya qilishni, ota-onasi, murabbiylari ishonchini oqlashni orzu qiladi. O'smirlar o'rtasidagi Osiyo o'yinlarida xorijlik tengdoshlarim bilan kechgan murosasiz bellashuvlarda g'olib bo'lib, kumush medalni qo'lga kiritganimda ana shu orzum ro'yobga chiqdi. Bizning bu yutuqlarimiz mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan doimiy e'tibor tufaylidir.»*

## ULKAN MAQSADLAR SARI

Bu 2013-yil Xitoyning Nankin shahrida o'tkazilgan o'smirlar o'rtasidagi Osiyo o'yinlarining dzyudo bahslarida kumush medalni qo'lga kiritgan Ulug'bek Otamurodovning so'zlari.

Ulug'bek poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 18-bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchisi. Bu yerda 21 nafar murabbiy 400 dan ziyod o'g'il-qizga sportning sambo, dzyudo, belbog'li kurash, qilichbozlik va futbol turlaridan saboq beradi.

Maktabda dzyudo sportiga qiziqqan yoshlar ko'p. Bu sek-siyadan O'zbekiston o'smirlar va yoshlar terma jamoalari uchun yangi-yangi iste'dodlar yetishib chiqmoqda.

– Yoshligimizda bunday sharoitlarda sport bilan shug'ullanishni tasavvur ham qilolmasdik, – deydi tajribali murabbiy Tohir Fayziyev. – Hozir yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar yaratilgan, faqatgina ular bu imkoniyatlardan unumli foydalansa bo'ldi.

Mashg'ulotlarda mahorat va tajriba oshirgan Sanjar Bahromov, Eldor Hamroqulov, Dilora Berdiyeva, G'iyos Boboyev singari yoshlar mamlakat birinchiliklari va xalqaro turnirlarda sovrinni o'rnlarni egallab kelmoqda. Jumladan, yosh polvonlardan G'iyosiddin Boboyev Xitoyning Xaynan shahrida o'tkazilgan dzyudo bo'yicha Osiyo chempionatida shohsupaning ikkinchi pog'onasidan joy oldi.

Bugun mamlakatimizning barcha hududida sportsevar yoshlar safi kengayib borayotgani quvonarlidir. Zero, sportni hayotining ajralmas qismiga aylantirgan o'g'il-qizlar nafaqat musobaqalarda, balki hayotda yuqori maqsadlar sari intilib yashaydigan har tomonlama sog'lom avlod bo'lib voyaga yetadi.

Shoh MUHAMMAD



## YOLG'ONNING UMRI QISQA

(Voqeyi hikoya)

Bugun maktabda shanbalik. 7-«A» sinf o'quvchilari yig'ilib, hasharni boshlab yuborishdi. Qizlar sinf xonasini tozalash, tuvakdagi gullarni parvarishlash bilan band. O'g'il bolalarga esa maktab hovlisidagi daraxtlarni oqlash, tagini yumshatish, ariq-zovurlarni tozalash vazifasi yuklatildi.



jamuljam, faqatgina Samad yo'q.

«Ko'pdan quyon qochib qutulmas» deganlaridek, o'quvchilar hazil-mutoyiba bilan birpasda belgilangan ishlarni bajarib bo'lishdi. Hammayoq chinnidek top-toza bo'ldi.

Bu vaqtda uyida yonboshlab televizor ko'rib yotgan Samad o'zicha o'yladi.

«Dushanba kuni o'qituvchimga nima bahona qilsam ekan-a? Ha, isitmalab qoldim, deya qolaman. Kecha dadam chipta olib kelgandi. Hali soat 16<sup>00</sup> da stadiona futbolga borishim kerak. Ungacha uxlab, dam olvolay», degan o'y o'tdi xayolidan.

Dushanba kuni birinchi soat sinf rahbari Fattoh Vahobovichning darsi edi. O'qituvchi bolalar bilan salomlashib bo'lgach, Samadni turg'izib, shanbalikda nega qatnashmaganining sababini so'radi. Shunda u boshi og'rib, isitmasi ko'tarilgani, kasal bo'lib qolganini vaj qilib ko'rsatdi.

– Ertalab kasal bo'lib shanbalikka kelolmay, kechki payt tuzalib, futbol ko'rishga boribsanda, – dedi Fattoh Vahobovich jiddiy ohangda. – Stadionda seni ko'rdim. Men ham futbol ishqiboziman. Tilingni aslo yolg'on so'zlarga o'rgatma. Yolg'onning umri qisqa bo'ladi.

Ustozining gaplaridan Samad qattiq uyaldi. O'roqlarining oldida izza bo'lib, endi hech qachon yolg'on so'zlamaslikka va'da berdi.

Dilorom HOTAMOVA

## RASMLARDA ORZULAR AKSI

Aziz bolajonlar, sizlardan tahririyatimizga juda ko'plab maktublar keladi. Turli viloyatlardan kelgan xatlar-ingizni saralab, «Rasmlar ko'rgazmasi»ni tashkil qildik.

Tengdoshlaringiz chizgilarini kuzatar ekanmiz, undagi har bir tasvirda beg'ubor orzulari mujassamligini ko'rdik.



«Ona tabiat in'omi»  
Iroda HOJIYEVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 10-umumta'lim maktabi o'quvchisi



«Men sevgan manzara»  
Diyoira ASADULLAYEVA, O'zMU qoshidagi akademik litseyining 1-bosqich o'quvchisi

## OLMA HAQIDA BILASIZMI?

Olma ko'pchilik sevib iste'mol qiladigan meva bo'libgina qolmay, balki u shifobaxsh xususiyatga ham egadir.


Sharq tabobatining buyuk namoyandasi Abu Ali Ibn Sino har kuni uxlashdan oldin bitta olma yeyishni tavsiya etgan. Bu meva turli vitaminlar va foydali mikroelementlarning koni hisoblanadi. Uning tarkibida S, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, P, E vitaminlari, karotin, kaliy, temir, marganets, kalsiy, qand moddasi mavjud. Meva sharbati yurak qon-tomir tizimini mustahkamlaydi. Olmadan tayyorlangan kisel yoki damlamalarni ichish juda foydali. Buning uchun olmani kesib, issiq choyni solib ichishning o'zi kifoya. Nordon olma sharbatini kamqonlikda qo'llash tavsiya etiladi. Olmaning Vatanimizda bir qancha turlari, jumladan, «Jonoq», «Semerinka», «Besh yulduz», «Behi olma», «Stakan olma», «Saltanat», «Qirg'iz olmasi» kabi navlari mavjud.

Manzura UBAYDULLAYEVA



## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

Bo'sh kataklarga parranda va hayvonlarning nomini yozib, boshqotirmani yeching.




Iqbol MALIKOVA

Gazetamizning 37-sonida berilgan KROSSCHAYN-VORDning javoblari: So'zlar quyidagi tartibda yoziladi: Raqam. Meros. Sadaf. Falak. Katak. Katet. Tovar. Rajab. Bashar.

## TOPISHMOQLAR

Yerda yotar tuyalar, Bag'rida kon uyalar.

Haybatli xo'p turishi, Hech kim bilan yo'q ishi.



Qo'lsiz, oyoqsiz, ammo Uy poylaydi doimo.

Husan UBAYDULLAYEV, Jizzax viloyati, Jizzax tumani

22-sentabr 2014

8



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir  
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV, Abduq'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSNOSI (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib), Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir  
Dilorom HOTAMOVA  
Rassom  
Feruzbek KAMOL o'gli

Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi – 30101 Buyurtma – S 947